

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZIRIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12/2019.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYXON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

BABAJANOVA RIMAJON KURAMBAYEVNA

***XANTHIUM STRUMARIUM* L. MEVASIDAN NOANANAVIY MOY
OLISHNING CHIQINDISIZ TEXNOLOGIYASINI YARATISH**

**02.00.17 - Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda
qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Babajanova Rimajon Kurambayevna

Xanthium Strumarium L. mevasidan noananaviy moy

olishning chiqindisiz texnologiyasini yaratish.....5

Бабажанова Римажон Курамбаевна

Создание безотходной технологии получения

нетрадиционного масла плодов

Xanthium Strumarium L.....21

Babajanova Rimajon Kurambaevna

Development of a waste-free technology for

obtaining non-traditional Fruit oil

Xanthium Strumarium L.....39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works43

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZIRIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12/2019.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYXON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

BABAJANOVA RIMAJON KURAMBAYEVNA

***XANTHIUM STRUMARIUM* L. MEVASIDAN NOANANAVIY MOY
OLISHNING CHIQINDISIZ TEXNOLOGIYASINI YARATISH**

**02.00.17 - Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda
qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4850 raqam bilan ro'yxatga olingan

Dissertatsiya Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ibgliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb sahifasida (ikimyo.nuu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Akramova Ra'no Ramizitdinovna
Texnika fanlari falsafa doktori (PhD), professor

Rasmiy opponentlar:

Dodayev Qo'chqor Odilovich
Texnika fanlari doktori, professor

Xaytmetova Saidaxon Boqijonovna
Texnika fanlari nomzodi, kimyo fanlari doktori,
yetakchi ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

**I.A. Karimov nomidagi Toshkent
Davlat Texnika Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.04.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2025 yil «__» _____ soat «_____» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 32-uy. Tel.: (99871) 244-79-20, faks: (99871) 244-79-17, e-mail: tkti_info@edu.uz.).

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko'ch.32. Tel.: (99871) 244-79-20).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil «__» _____ dagi № _____ raqamli reestr bayonnomasi).

S.M. Turobjonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash
raisi, t.f.d., akademik

X.I. Kadirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash
kotibi, t.f.d., professor

Q.P. Serkayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
goshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., dots.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda kretinizm va bo‘qoq kasalliklar dunyo aholisi orasida keng tarqalgan bo‘lib, ushbu kasalliklar profilaktikasida funksional oziq-ovqat mahsulotlari samarali hisoblanadi. Yod tanqisligiga qarshi kurashish, aholi salomatligini saqlashga yo‘naltirilgan, tarkibi yodga boy o‘simliklar ekstraktlarini qo‘shish orqali tayyor mahsulotning parhez bop xususiyatlarini oshirish, shifobaxsh va profilaktik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda shifobaxsh, yangi tarkibdagi oziq-ovqat mahsulotlari olishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada tabiiy xom ashyolardan samarali foydalanish, dorivor o‘simliklar tarkibidagi biologik faol moddalarni aniqlash, ularning yod birikmalari bilan boyitilgan ekstrakt va konsentratlarini olish, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo‘shish bilan funksional ko‘rsatkichlarini oshirish, yodga boy mahsulot ishlab chiqarish texnologiyalarini jadallashtirish va sinovdan o‘tkazishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, dorivor o‘simliklardan oziq-ovqat sanoatida foydalanish, oziq-ovqat mahsulotlari retseptlariga dorivor o‘simliklar ekstraktlarini kiritish, parhez bop, shifobaxsh hamda vitaminlarga mahsulotlar olish jarayonlarida qo‘llash bo‘yicha muayyan ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «sanoatni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, mahalliy xom ashyo manbaalarini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni o‘zlashtirish»¹ bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada dorivor o‘simliklarni tanlash, yod saqlagan mevalardan moy va moyli ekstraktlar olish, ularni oziq-ovqat mahsulotlari retseptlariga kiritish orqali shifobaxshlik ko‘rsatkichlarini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» farmoni, 2018 yil 18 dekabrda PQ-4063-sonli «Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020 yilning 10 noyabridagi PQ-4887-sonli «Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi hamda 2020 yil 10 apreldagi PQ-4670-sonli «Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» farmoni

ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. *Xanthium Strumarium* L. o‘simligining kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlarini o‘rganishda Endalkachew Nibret, Mahamoud Youns, R. Luise Krauth-Siegel, Michael Wink, Gulden Dogan, Yasar Kiran, Phan T.T. Huong, Ye-Liang Wen, Janet Piloto Ferrera, Iris Catiana Zampinib, Ana Soledad Cuellob, Marbelis Franciscoa, Aylema Romeroc, Dayana Valdivia Lamésa, María Gonzalez-Siegel, Ular tomonidan *X.Strumarium* yer ustki qismlarining, asosan, barglari va ulardan olingan efir moyining fitokimyoviy tarkibi hamda o‘simlikning dorivorlik xususiyatlari o‘rganilgan. Yu.V. Branke, Ye.F. Guttler *X.Strumarium* o‘simligi mevalaridan moy olish mumkinligini taxmin qilgan bo‘lsalar, Yu.V. Bikov, J.B. Farmonov va A. Saidovlar noan‘anaviy o‘simlik xomashyosidan o‘simlik moyi olish usullarini ishlab chiqish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borganlar. Biroq, *X. Strumarium* o‘simligi mevasidan sanoat usulida moy olish va undan xalq xo‘jaligida foydalanish usullarini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmagan.

Shu bilan birga *X.Strumarium* o‘simligi mevasidan samarali foydalanish, yod saqlagan moy va moyli ekstraktlar olish, farmakologiya, parfyumeriya va rafinatsiyalashdan keyin funksional vazifalarga ega bo‘lgan kupaj qilingan yod bilan boyitilgan o‘simlik moylarini ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratishga va mahsulotlarning funktsionallik xususiyatini oshirishga erishilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti va Toshkent kimyo-texnologiya institutlarining mahalliy xomashyolardan import o‘rnini bosuvchi yangi mahsulotlar olish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №AM-FZ-201908159 «Mahalliy xomashyolar asosida funksional qo‘shimchalar bilan boyitilgan parhezli margarin olish texnologiyasini ishlab chiqish» (2020 - 2022 yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi *Xanthium Strumarium* L. mevasidan yodli moy (moyli ekstrakt) olish hamda kungaboqar moyi bilan matseratsiya qilish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

X.Strumarium o‘simligi mevalarining, hamda moy va moyli ekstraktning organik erituvchi va o‘simlik moyi yordamida ajratib olishda hosil bo‘ladigan ikkilamchi mahsulotlarni (po‘stloq va shrot) biokimyoviy tarkibini tadqiq etish;

X.Strumarium mevalarining tuzilish-mexanik xususiyatlarini tadqiq etish va ulardan moy ajratib olishga tayyorlashning eng maqbul sharoitlarini aniqlash;

ekstraksiya usuli bilan moy ajratib olish darajasining ekstragent turiga va texnologik ko‘rsatkichlarga bog‘liqligini tadqiq etish;

X.Strumarium mevasi moyi va moyli ekstraktining yog‘ kislotali tarkibini o‘rganish hamda ulardagi yodning massa ulushini aniqlash;

X.Strumarium mevasidan moy va moyli ekstrakt olishning texnologik jarayonini ishlab chiqish, ekstraksiyaning eng maqbul tartibini belgilash va samarali ekstragentni tanlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida *X.Strumarium* o‘simligi mevasi, urug‘i, meva qobig‘i, shroti, kunjarasi, moyi, moyli ekstrakti, rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan kungaboqar moyi olingan.

Tadqiqotning predmetlari Xorazm viloyati hududida o‘suvchi *X.Strumarium* o‘simligi mevalari, ularni qayta ishlash ikkilamchi mahsulotlari, meva moyi va moyli ekstrakti biokimyoviy tarkibini, moy va moyli ekstrakt olishning texnologik jarayonlari va usullarini yaratish hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda xom ashyo va tayyor mahsulotlar tarkibidagi erigan quruq moddalar refraktometr yordamida, uglevodlar, aminokislotalar, flavonoidlar va vitaminlar miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, umumiy yog‘ kislotalari va fosfolipidlar miqdori gaz-suyuqlik xromatografiyasi, makro- va mikroelementlar mass-spektrometriya va ionli xromatografiya usulida aniqlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xanthium Strumarium L. o‘simligi mevasi, meva qobig‘i va shrotining biokimyoviy tarkibi aniqlanib, lipidlar, yog‘ kislotalar, oqsillar, uglevodlar, suvda eriydigan vitaminlar, flavonoidlar, mikro- va makroelementlar hamda yod saqlashi isbotlangan;

X.Strumarium mevalarining tuzilish-mexanik xususiyatlari aniqlanib, 12 % gacha ignalaridan va 45% gacha qobig‘idan ajratilganda moy va moyli ekstrakt samarali ajralish asoslangan;

X.Strumarium ning maydalangan mevalari namligini 5,9-6,9 % dan 10,5-11,5 % gacha oshirish uchun 110 °C haroratli suv bug‘i bilan 15-20 soniya davomida namlab, 65 °C haroratda 30 daqiqa davomida qovurish natijasida moy chiqishi 15,47 % ko‘payishi isbotlangan;

X.Strumarium o‘simligi mevalari moyi va moyli ekstraktining yog‘ kislota tarkibi aniqlangana va meva moyi tarkibidagi yodning massa ulushi 610 mg/l, kungaboqar moyi asosidagi *X. Strumarium* o‘simligi mevalari moyli ekstragentidagi yodning massa ulushi 285 mg/l ekanligi isbotlangan;

X.Strumarium o‘simligi mevalarini kungaboqar moyi (1:3) bilan 60 °C haroratda 60 daqiqa davomida matseratsiya qilish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xorazm viloyati hududida o‘suvchi noan‘anaviy moyli xomashyo - *Xanthium Strumarium* L. o‘simligi mevalaridan moy va moyli ekstrakti ajratib olish maqbul sharoitlari aniqlangan;

X.Strumarium o‘simligi mevasidan organik erituvchi va rafinatsiyalangan kungaboqar moyi yordamida ekstraksiya va matseratsiyalash jarayonining texnologik parametrlari aniqlangan;

Xanthium Strumarium L. mevasidan yodli moy (moyli ekstrakt) olish hamda kungaboqar moyi bilan matsratsiyalash texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy fizik-kimyoviy usullar: HPLC yuqori samarli suyuqlik xromatografi, yupqa qatlamli xromatografiya, ISP-MS (Nexion 2000) induktiv bog‘langan plazmali mass-spektrometri, element va analitik tahlillardan, eksperimental ma‘lumotlarga statistik ishlov berishda zamonaviy nazariyalardan foydalanilganligi, nazariy va tajriba tadqiqot natijalarining o‘zaro mutanosibligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati *X.Strumarium* o‘simligi mevasidan yod saqlagan moy va moyli ekstraktlar olish, farmakologiya, parfyumeriya va rafinatsiyalashdan keyin funksional vazifalarga ega bo‘lgan kupaj qilingan yod bilan boyitilgan o‘simlik moylarini moyi va moyli ekstrakti ishlab chiqarish, mahsulotlarning sifati va funktsionallik xususiyati me‘yorlarga mos texnologiyalarini maqbullashtirish jarayonlarining optimal sharoitlari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xalq tabobati va farmasevtika sanoatida keng qo‘llaniladigan *X.Strumarium* o‘simligi mevasidan yod tutuvchi ekstraktlari va konsentratlari olish, biologik faol moddalarga boy shifobaxsh ozuqaviy qo‘shimchalar sifatida foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *X.Strumarium* o‘simligi mevasidan moy va moyli ekstrakt olish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

yuqori biologik xususiyatlarga ega *X.Strumarium* o‘simligi mevasidan moy va moyli ekstrakt olish texnologiyasi O‘zbekiston Respublikasi «O‘zyog‘moysanoat» uyushmasining 2025-2030 yillarda amaliyotga joriy etiladigan istiqbolli ishlanmalar ro‘yxatiga kiritilgan («O‘zbekiston Respublikasi yog‘- moy sanoati korxonalarini uyushmasi»ning 2024 yil 13 sentyabrdagi KS/3-304-son ma‘lumotnomasi). Natijada, yod miqdori yuqori bo‘lgan moy ishlab chiqarish imkonini bergan;

X.Strumarium o‘simligi mevasidan suv bug‘i bilan ishlov berish orqali moy va moyli ekstrakt olish texnologiyasi O‘zbekiston Respublikasi «O‘zyog‘moysanoat» uyushmasining 2025-2030 yillarda amaliyotga joriy etiladigan istiqbolli ishlanmalar ro‘yxatiga kiritilgan («O‘zbekiston Respublikasi yog‘- moy sanoati korxonalarini uyushmasi»ning 2024 yil 13 sentyabrdagi KS/3-304-son ma‘lumotnomasi). Natijada, yuqori biologik xususiyatlarga ega, organik biriktirilgan yod manbai sifatida o‘simlik moylarida qo‘llash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta shu jumladan, 2 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 17 ta ilmiy ish, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 6 ta maqola, jumladan 5 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betdan iborat bo'lib, 26 ta rasm va 30 ta jadvaldan foydalangan holda yoritilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «*Xanthium Strumarium* L. o'simligining botanik ta'rifi va tavsifi, meva moyini ekstraksiya qilish texnologiyalari va usullari. Analitik sharh» deb nomlangan **birinchi bobida** boshqa mamlakatlarda o'suvchi *X.Strumarium* o'simligining botanik tavsifi, o'sish areali va xarakteristikasi keltirilgan. Xomashyo mevalari, urug'larining xususiyatlari, tuzilishi va kimyoviy tarkibi, moy ajratib olish usullari va jixozlar, moyni ekstraksiya qilishda ishlatiladigan organik erituvchilarning xarakteristikasi keltirilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili natijasida dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari belgilab olingan.

Dissertatsiyaning «**Xom ashyo va tayyor mahsulot tarkibidagi biologik faol moddalarni aniqlash usullari**» deb nomlangan **ikkinchi bobida** tadqiqot obyekti, tadqiqotlar ketma-ketligi sxemasi, xomashyo, ekstraksion moy, moyli ekstrakt va *X.Strumarium* o'simligi mevasini qayta ishlash ikkilamchi mahsulotlarining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash usullari, o'simlik mevalaridan moy ajratib olish uchun laboratoriya qurilmasi keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Xorazm viloyati hududida o'suvchi *Xanthium Strumarium* L. o'simligi mevalarining kimyoviy tarkibi, ularni qayta ishlash mahsulotlari va ekstraksiyalash jarayonini tadqiq qilish**» deb nomlangan **uchinchi bobida** *Xanthium Strumarium* L. o'simligi mevalari va ularni qayta ishlash ikkilamchi mahsulotlarining kimyoviy tarkibi, *X.Strumarium* o'simligi mevasining tuzilishi va xususiyatlari, qo'ytikan o'simligi mevalari yanchilmadan moy ajratib olish uchun laboratoriya qurilmalari, ekstraksiya uchun samarali erituvchini tanlash va qo'llanilgan ekstragent turiga qarab moy tarkibini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan, mevalardan moy ajratib olish darajasini ularni tayyorlash usuliga bog'liqligini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar, shuningdek, ekstraksion moy va moyli ekstrakt tarkibidagi yod va yog' kislota tarkibini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar natijalari bayon etilgan.

Noan'anaviy moyli xomashyo *X.Strumarium* o'simligi mevasi, moy va moyli ekstrakt tarkibida yod mavjud. Xorazm viloyati hududida *X.Strumarium* o'simligi qishloq xo'jaligi yerlarining sug'oriladigan dalalarida va qir-adirliklarida, cho'llarda, kanal va daryo qirg'oqlarida o'sadi. *X.Strumarium* o'simligi o'rtacha sho'rlangan yerlarda yaxshi o'sadi, zararkunandalar va boshqa begona o'tlardan

qo'rqmaydi, yaxshi hosildorlikka ega va rejali ravishda yetishtirilganda maxsus va murakkab agrotexnologiyalarni talab qilmaydi.

Qo'ytikan o'simligi mevasi etarli darajada o'rganilmaganligi bois, mevaning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borildi, natijalar 1-jadvalda keltirilgan. Undan ko'rinib turibdiki, meva ignalari va qobig'larini olib tashlash natijasida moyning chiqishi sezilarli darajada oshadi.

1-jadval

***Xanthium Strumarium* L. o'simligining igna va ignalarsiz mevalari hamda urug'larining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari**

| № | Ko'rsatkichlar | <i>X.Strumarium</i> o'simligi mevasi ignali | <i>X.Strumarium</i> o'simligi mevasi ignasiz | <i>X.Strumarium</i> o'simligi urug'lari |
|----|-------------------------------|---|--|---|
| 1 | Rang | Och-jigar rang | Och-jigar rang | Kulrang yashil, sariq-yashil rang |
| 2 | Xidi | Qo'ytikanga xos, spetsifik | Qo'ytikanga xos, spetsifik | Qo'ytikanga xos, spetsifik, moyli |
| 3 | Iflos aralashmalar, % | 6 | - | - |
| 4 | Qobig'lar:urug'lar nisbati, % | 72,4:27,4 | 67,8:31,8 | - |
| 5 | Qobig' miqdori, % | 76,86 | 71,70 | - |
| 6 | Namlikning massa ulushi, % | 5,93 | 5,39 | 5,28 |
| 7 | Kritik namlik, % | 12,87 | 12,79 | 9,48 |
| 8 | 1000 dona og'irligi, g | 291,5 | 273,9 | - |
| 9 | Hajmiy massa (Natura), g/l | 76 | 155 | - |
| 10 | Moyning massa ulushi, % | 11,2 | 11,8 | 34,6 |

X.Strumarium o'simligi mevasi, urug'i va qobig'idan umumiy lipidlar ajratib olindi, yupqa qatlamli va gaz xromatografiyasi usullari yordamida umumiy lipidlardagi neytral lipidlar (yog') miqdori, moyning yog' kislotalari tarkibi aniqlandi. Olingan ma'lumotlar Rossiya Federatsiyasi hududida o'suvchi qo'ytikan o'simligi mevasi va urug'idan ajratib olingan lipidlar bilan taqqoslandi (2-jadval).

2-jadvalda O'zbekiston xududida o'suvchi *X.Strumarium* o'simligining meva va urug'lari tarkibidagi lipidlar miqdori Rossiya xududida o'sgan *X.Strumarium* o'simligi meva va urug'lari tarkibidagiga nisbatan biroz kamroq. O'zbekiston xududida o'suvchi *X.Strumarium* o'simligi urug'i tashqi qobig'idan ilk bor lipidlar ajratib olindi va tavsiflandi. Xorazm mintaqasidagi *X.Strumarium* o'simligi lipidlari tarkibida linol kislotasi (18:2n6) 76,58% taskil etadi va C20 qatoridagi yog' kislotalari (20:0, 20:1, 22:0, 24:0) mavjudligi aniqlandi.

X.Strumarium o'simligining mevalari, meva kunjarasi, meva shroti va urug'larining umumiy oqsil miqdori aniqlandi. Mevalarda umumiy oqsilning o'rtacha qiymati 9,90%, kunjarada 12,47%, meva shrotida 9,61%, urug' shrotida esa 33,08% tashkil etishi ma'lum bo'ldi. Xomashyoning F1 va F2 elash fraksiyalaridagi meva, meva qobig'i va shroti tarkibida 20 xil aminokislota mavjudligi: 8 xil almashinmaydigan, 6 xil shartli almashinmaydigan va 6 xil almashinadigan aminokislotalar aniqlandi.

Mevalar, meva kunjarasi, meva shroti va urug'laridan uglevodlar ajratib olinib, ularning miqdori aniqlandi: mevalarda 3,9% pektin moddalari, qobig'ida 5% suvda

eruvchan polisaxaridlar, meva kunjarasida 4,5% gemitsellyuloza, meva tarkibida 4,5% va urug' shrotlarida 6,9% pektin moddalari mavjudligi aniqlandi. Gaz xromatografiyasi usulida uglevodlarning monosaxaridlar tarkibida arabinoza, ksiloza, galaktoza, glyukoza, ramnoza va mannoza mavjudligi aniqlandi. IQ spektroskopiya usuli yordamida meva, kunjara va xomashyo shrotidan ajratib olingan uglevod namunalarida karboksil, gidroksil hamda α - va β -glikozid bog'larning mavjudligi aniqlandi.

2-jadval

Xorazm viloyati va Rossiya Federatsiyasida o'sgan *Xanthium Strumarium* L. o'simligi meva, urug' va meva qobig'lardagi lipidlar miqdori hamda yog' kislotalari tarkibi

| № | Ko'satkichlar | Xorazm viloyatida o'sgan <i>X.Strumarium</i> o'simligi | | | Rossiya F. o'sgan <i>X.Strumarium</i> | |
|-----|-------------------------------------|--|-------------|--------------|---------------------------------------|-------------|
| | | Mevalar, % | Urug'lar, % | Qobig'lar, % | Mevalar, % | Urug'lar, % |
| 1. | Og'irligi, g | 50 | 13,7 | 36,2 | - | - |
| 2. | Lipidlar miqdori, % abs.qur.massaga | 10,4 | 34,1 | 5,52 | 12,1 | 38,8 |
| | Yog' kislotalari: | | | | | |
| 1. | Miristin k-si, 14:0 | - | - | 0,15 | - | - |
| 2. | Miristolrin k-si, 14:1 n 5 | - | - | 0,12 | - | - |
| 3. | Pentadekan k-si, 15:0 | - | - | 0,03 | - | - |
| 4. | Palmitin k-si, 16:0 | 5,96 | 6,64 | 8,76 | 5,40 | 5,59 |
| 5. | Palmitoleon k-si, 16:1 n9 | 0,06 | 0,07 | 0,09 | - | - |
| 6. | Margarin k-si, 17:0 | 0,07 | - | - | - | - |
| 7. | Steorin k-si, 18:0 | 2,63 | 2,82 | 3,13 | 2,27 | 2,14 |
| 8. | Olein k-si, 18:1 | 12,86 | 14,39 | 15,48 | 19,9 | 20,07 |
| 9. | α -linol k-si, 18:2 | 76,58 | 74,15 | 68,18 | 67,43 | 68,06 |
| 10. | α -linolen, 18:3 | 0,21 | 0,27 | 0,34 | 0,26 | 0,29 |
| 11. | Araxin k-si, 20:0 | 0,14 | 0,13 | 0,22 | - | - |
| 12. | Gadolein k-si, 20:1 n 9 | 0,19 | 0,14 | 1,15 | - | - |
| 13. | Begen k-si, 22:0 | 0,62 | 0,63 | 0,99 | - | - |
| 14. | Eruk k-si, 22:1 n 3 | - | - | 0,19 | - | - |
| 15. | Dokozadiyen k-si, 22:2 | - | - | 0,31 | - | - |
| 16. | Lignotserin k-si, 24:0 | 0,14 | 0,15 | 0,15 | - | - |
| 17. | Nervon k-si, 24:1 n 15 | - | - | 0,71 | - | - |
| | Σ to'yingan YoK. | 9,56 | 10,37 | 13,43 | 7,67 | 7,73 |
| | Σ to'inmagan YoK. | 89,90 | 89,02 | 86,57 | 87,59 | 88,42 |

X.Strumarium o'simligining mevasi, meva qobig'lari va meva shrotidagi suvda eruvchan vitaminlar o'rganildanda, ilk bor namunalar tarkibidan B₁, B₂, B₃, B₆, B₉, C vitaminlari ajratib olindi va ularning miqdori aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mevalarda vitamin C - 68,5 mkg/g, mevali qobig'da - 60,6 mkg/g, shrotida - 49,4 mkg/g, riboflavin (vitamin B₂) 26,5 mkg/g, 33,3 mkg/g va 18,3 mkg/g va folat kislotasi (vitamin B₉) 3,6 mkg/g, 4,45 mkg va 59 mkg/g miqdorda ekanligi aniqlandi.

Ilk bor *X.Strumarium* o'simligining mevasi, qobig'lari va mevasi shroti tarkibida 6 xildagi flavonoidlar: digidrokversitin, lyuteolin, sinarozid, rutin, kversitin va salidrozd identifikatsiya qilindi. Salidrozd flavonoidi ko'p miqdorda

ekanligi: mevalarda - 8,38 mg/g, meva qobig'larida - 3,58 mg/g, shrotda - 1,48 mg/g ma'lum bo'ldi. Bugungi kunga qadar salidrozyd olishning asosiy manbai pushti rodiola ildizlari hisoblanadi (salidrozydning miqdori pushti rodiola ildizlarida 28,8 mg/g). *X.Strumarium* meva qobig'ida rutin (1,253 mg/g) va lyuteolin (1,186 mg/g) ham sezilarli miqdorda mavjud.

X.Strumarium o'simligi mevasi, qobig'i va shroti element tarkibi tadqiq etilib, 5 ta makro- va 39 ta mikroelementlar mavjudligi aniqlandi. Qo'ytikan o'simligi mevasi shrotda mineral moddalar miqdori yuqori bo'lib, kaliy (>300000 mg/kg), kalsiy (38000 mg/kg) va magniy (7300 mg/kg) ustunlik qiladi.

X.Strumarium o'simligining maydalangan mevalaridan to'g'ridan-to'g'ri benzin yordamida ekstraksiya qilish usuli bilan yog'li moy ignali va ignasiz, hamda meva qobig'ining ko'p qismi olib tashlangan holda ajratib olindi. Olingan moy namunalarining organoleptik va fizik-kimyoviy xususiyatlari aniqlandi, natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

***Xanthium Strumarium* L. o'simligi mevasi moyining organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari**

| № | Ko'rsatkichlar | <i>X.Strumarium</i> o'simligi mevasi benzinli ekstraksiya moyi | |
|----|--|--|------------|
| | | Ignali | ignasiz |
| 1 | Xidi | Spetsifik | |
| 2 | Shaffoflik | O'rtacha | |
| 3 | Ta'mi | Moysimon, taxir | |
| 4 | Rangi | Qahrabo rang | To'q-sariq |
| 5 | Rangdorlik, mg J ₂ 100 sm ³ da | 10 | 15 |
| 6 | Nur sindirish ko'rsatkichi, nD | 1,515 | 1,510 |
| 7 | Nisbiy zichlik, g/cm ³ | 0,9288 | 0,9287 |
| 8 | Mumga o'xshash moddalarning mavjudligi | + | + |
| 9 | Kislota soni, mg KOH/g | 3,56 | 3,10 |
| 10 | Yod soni, mg J ₂ 100 g da | 145,51 | 161,91 |
| 11 | Karotinoidlarning miqdori, mg% | 4,78 | 5,66 |

Shu bilan birga, benzinli ekstraksiyadan olingan *X.Strumarium* o'simligi moyida flavonoidlar va terpenoidlar mavjudligi aniqlandi.

X.Strumarium o'simligi mevasi moyi va moyli ekstraktining yog' kislotalar tarkibini aniqlash natijalariga ko'ra turli ekstragentlar yordamida ajratib olingan ekstraksiyon moylar barcha namunalarining yog' kislota tarkibi keskin farq qilmaydi. Yog' kislotalar tarkibida eng ko'p miqdor α -linol (18:2) yog' kislotasiga to'g'ri keladi. Olein (18:1) yog' kislotasi, shuningdek, α -linolen (18:3), gadolein (20:1), palmitoleon (16:1 n 9) kabi to'yinmagan yog' kislotalari mavjudligi va olingan moylarning barcha turlarida to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalari yig'indisi nisbati sezilarli darajada farq qilmaganligini ta'kidlash lozim.

Ionli xromatografiya va induktiv bog'langan plazmali mass-spektroskopiya usullaridan foydalanib, xomashyo mevasi, qobig'lari va meva shroti tarkibidagi yod miqdorini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Olingan ma'lumotlar Rossiya Federatsiyasining Lipetsk viloyatida o'sadigan *X.Strumarium* o'simligidagi yod miqdorlari bilan taqqoslandi (4-jadval).

Tahlil natijasiga ko'ra, *X.Strumarium* o'simligi mevasi qobig'larining F1 va F2 fraksiyalari maydalangan mevalarga nisbatan eng ko'p miqdorda yodga ega degan xulosaga kelish mumkin. Xomashyo ignali mevasi shrotidagi yod miqdori ignasiz mevasi shrotidagi yod miqdoriga nisbatan ko'p ekanligi ma'lum bo'ldi. Ignasiz meva shrotida yodning qoldiq miqdori ignasiz maydalangan mevalarga nisbatan ancha kam, demak, bundan yodning ma'lum qismi moyga o'tganligi korinadi. Biroq, Lipetsk viloyatida o'sadigan *X.Strumarium* o'simligining shrotlarida uning miqdori mahalliy *X.Strumarium* o'simligiga qaraganda kam.

Induktiv bog'langan plazmali mass-spektrometriya (ICP-MS) usulidan foydalanib, olingan moylar va moyli ekstraktlar tarkibidagi yodning organik birikmalari mavjudligi o'rganildi va u Rossiya Federatsiyasining Lipetsk viloyati moyi bilan taqqoslandi, tahlil natijalari 5-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati va Rossiya Federatsiyasi Lipetsk viloyatida o'sadigan *X.Strumarium* o'simligidagi organik yod miqdori

| № | Namuna turi | Xorazm v. o'sadigan <i>X.Strumarium</i> o'simligi tarkibidagi yodning massa ulushi, mg/kg | Lipetsk v. o'sadigan <i>X.Strumarium</i> o'simligi tarkibidagi yodning massa ulushi, mg/kg |
|---|---|---|--|
| 1 | <i>X.Strumarium</i> o'simligi maydalangan mevalari ignalarsiz | 345 | - |
| 2 | <i>X.Strumarium</i> o'simligi mevasi qobig'lari (1-elash fraksiyasi) | 415 | - |
| 3 | <i>X.Strumarium</i> o'simligi qobig'lari va urug' po'stloqlari (2-elash fraksiyasi) | 407 | - |
| 4 | <i>X.Strumarium</i> o'simligi urug'lari shroti | 135 | 76,7 |
| 5 | <i>X.Strumarium</i> o'simligi meva qobig'lari shroti | - | 242,5 |
| 6 | <i>X.Strumarium</i> o'simligi ignali urug'lari shroti | 383 | 217,2 |
| 7 | <i>X.Strumarium</i> o'simligi ignasiz urug'lari shroti | 219 | - |

Jadvaldan Lipetsk viloyatida o'sadigan *X.Strumarium* o'simligi mevasi va urug'laridan ajratib olingan moyining tarkibida Xorazm viloyatida o'sadigan *X.Strumarium* o'simligi mevasi va urug'laridan ajratib olingan moyining tarkibidagi yod birikmalari nisbatan kam miqdorda ekanligi aniqlandi. Yodning eng yuqori massa ulushi Xorazm viloyatining 2022-yilda terib olingan hosilidagi *X.Strumarium* ignali va qobig'li mevasi moyida 610 mg/l ekanligi aniqlangan. 2021-yil terib olinib, bir yil saqlangan hosil mevalaridan ajratib olingan moyda esa yod miqdori kamroq 529 mg/l ekanligi ma'lum bo'ldi. Demak, saqlash natijasida mevalar tarkibida yod miqdorining kamayishi kuzatiladi. Ignasiz *X.Strumarium* o'simligi mevaning ajratib olingan moyining tarkibida organik bog'langan yod miqdori *X.Strumarium* o'simligi urug'idan ajratib olingan moyning miqdori bilan deyarli bir xil. Bundan xulosa qilish mumkinki, *X.Strumarium* o'simligi meva qobig'i va ignalaridagi yod moyga o'tadi,

agarda qobiq va ignalardan tozalansa benzinda ekstraksiya qilish natijasida moy tarkibidagi yodning massa ulushi sezilarli darajada kamayishi kuzatiladi.

Kungaboqar moyi tarkibida yod moddasini tutmaydi, matsratsiya jarayonida kungaboqar moyiga *X.Strumarium* mevasi tarkibidagi biologik faol moddalar ajralib chiqadi, matsratsiya jarayoni meva-kungaboqar moyi 1:3 nisbatda olib borilganda 285 mg/l miqdorli yodli moy ajratib olishga erishildi.

Mevalarni ekstraksiyaga tayyorlashning maqbul usulini tanlash maqsadida *X.Strumarium* mevasining tuzilishi va xususiyatlari o'rganildi. Xomashyo 2021-2023 yillar oktyabr-noyabr oylarida Xorazm viloyatidagi sug'orish va drenaj kanallari bo'ylarida, Amudaryo bo'yida, sug'oriladigan paxta dalalari va bog'larida o'suvchi o'simliklardan terib olindi.

5-jadval

Xorazm viloyatida va Rossiya Federatsiyasi Lipetsk viloyatida o'sadigan *Xanthium Strumarium* L. o'simligi mevasi moyi va moyli ekstraktlari tarkibidagi yod miqdori

| № | Namuna turi | Xorazm vil. o'sadigan <i>X.Strumarium</i> da yodning massa ulushi, mg/l | Lipetsk vil. o'sadigan <i>X.Strumarium</i> da yodning massa ulushi, mg/l |
|---|---|---|--|
| 1 | <i>X.Strumarium</i> o'simligi mevalari moyi (2021 y hosili) | 529 | 340,2 |
| 2 | <i>X.Strumarium</i> o'simligi mevalari moyi (2022 y hosili) | 610 | |
| 3 | <i>X.Strumarium</i> o'simligi urug'lar moyi | 205 | 114,6 |
| 4 | <i>X.Strumarium</i> o'simligi ignasiz mevalari moyi | 233 | - |
| | Moyli ekstraktlar –mevalar: kungaboqar moyi | | |
| 5 | 1:1 | 261 | - |
| 6 | 1:2 | 273 | - |
| 7 | 1:3 | 285 | - |
| 8 | «Nonna» kungaboqar moyi | - | |

Xorazm viloyatida o'sadigan *X.Strumarium* o'simligi mevalari och jigarrang tusda bo'lib, uzunligi 14 mm dan 20 mm gacha, eni esa 7 mm dan 13 mm gacha yetadi. *X.Strumarium* o'simligi tuxumsimon meva qobig'i yuzasi 3-5 mm uzunlikdagi ilmoqsimon ignalar bilan qoplangan va meva qobig'ining uchida ikkita o'tkir sanchqisimon tikanlar mavjud. Mevalarning yumshoq tolali tuzilishidagi qobig'lari va ignalarini hisobga olgan holda, maydalashning turli usullaridan foydalandik.

Meva qobig'larini maksimal ajratib olish va moy ajralishini oshirish uchun gorizontal pichoqli Spice & Herb Grinder HR-06B laboratoriya maydalagichi, to'g'ri to'rtburchakli (2,0x20,0 mm, 1,8x20,0 mm, 1,0x20,0 mm) va dumaloq (Ø4,5 mm va Ø3,0 mm) teshikli elaklar tizimidan foydalanildi. Ekstraksiyon moy ajralishining elaklar diametri va teshiklarini maydalash vaqtiga bog'liqligi 6-jadvalda keltirilgan.

Ajralib chiqqan urug'qobig'larining maksimal miqdori va yuqori unumda

moy ajralishi 30-40 sek davomida maydalanganda va teshik o'lchamlari 2,0 x 20,0; 1,8 x 20,0 va 1,0 x 20,0 mm bo'lgan elaklardan o'tkazganda kuzatildi.

X.Strumarium o'simligi ignali mevasining maydalangan massasining tuzilishi BioBlue BB 4253 mikroskopida o'rganildi. Maydalangan massa tarkibida qobig'ining ilmoqsimon ignalari, qobig'ining mayda zarralari, elakdan o'tkazishda ajralmagan urug'larning yupqa po'stlog'i va maydalangan *X.Strumarium* urug'lari mavjudligi aniqlandi.

6-jadval

***Xanthium Strumaium* L. o'simligi meva qobig'lari fraksiyalari hamda ekstraksion moy ajralishini maydalash vaqti va elaklovchi elak teshiklari diametriga bog'liq holda o'zgarishi**

| Elak teshiklar o'lchamlari, mm | | | Maydalash vaqti, cec | Moy chiqishi, % | Qobiq chiqishi, % |
|--------------------------------|-------------------|-------------------|----------------------|-----------------|-------------------|
| Birinchi elash | Ikinchi elash | Uchunchi elash | | | |
| 2,0 x 20,0 | 1,8 x 20,0 | 1,0 x 20,0 | 20 | 13,5 | 41,5 |
| 2,0 x 20,0 | 1,8 x 20,0 | 1,0 x 20,0 | 30 | 14,2 | 39,8 |
| 2,0 x 20,0 | 1,8 x 20,0 | 1,0 x 20,0 | 40 | 14,6 | 45,8 |
| 2,0 x 20,0 | 1,8 x 20,0 | 1,0 x 20,0 | 50 | 13,3 | 31,1 |
| 2,0 x 20,0 | 1,8 x 20,0 | 1,0 x 20,0 | 60 | 13,0 | 29,6 |
| Ø 4,5 | Ø 3,0 | - | 20 | 13,6 | 30,3 |
| Ø 4,5 | Ø 3,0 | - | 30 | 14,1 | 27,2 |
| Ø 4,5 | Ø 3,0 | - | 40 | 14,5 | 31,8 |
| Ø 4,5 | Ø 3,0 | - | 50 | 13,6 | 23,7 |
| Ø 4,5 | Ø 3,0 | - | 60 | 13,2 | 22,4 |

Ignalarni olib tashlash uchun xomashyo donni po'stloqdan ajratuvchi laboratoriya VIII3-1 (GOST 30483-97) qurilmasi yordamida 40-50 sek davomida 12,5 sek⁻¹ aylanish chastotasida silliqlandi, singan ignalar mevalarning umumiy massasini 12,6% ni tashkil etdi.

X.Strumarium o'simligi mevasidan moy ajratib olish samaradorligi ularni tayyorlash usuliga bog'liqligi o'rganildi. Tayyorlov jarayonlari: elaklash - begona aralashmalardan ajratish, silliqlash –meva qobig'ining ignalaridan tozalash, maydalash, elaklash – qobig'larni ajratish, maydalangan xomashyo massasiga suv bug' bilan ishlov berish va qovurish kabilardan iborat. Namli-isiqlik yordamida ishlov berishning maqbul rejimlarini aniqlash maqsadida bir qator tadqiqotlar o'tkazildi.

